

## TOG'LICHUDUDLARDA GREK YONG'OG'I YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

PhD, dots. **Inobatov Abror Boshlarovich**

Renessans ta'lim universiteti

ORCID: 0000-0003-0288-8798

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada respublikada yong'oq biznesini rivojlantirish ushbu jarayonning huquqiy konsultatsiyasini kengaytirishi imkoniyatlari yoritilgan. O'zbekiston Osiyo mamlakatlari orasida iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlari bilan yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, qishloq xo'jaligi sohasining eksport salohiyatini oshirish hamda jahon bozorida munosib va mustahkam o'rinnegallashiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Grek yong'og'i yetishtirish, sohani zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, ishlab chiqarishga jahon bozori talablariga javob beradigan mahsulot yetishtirish imkoniyatiga ega bo'lgan grek yong'og'i navlari, tejamkor va raqamli agrotexnologiyalarni joriy qilish mahsulot sifatini yaxshilash va tarmoqda mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** xususiy sektorda tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish, erkin tadbirkorlik, mulkchilik shakllari, qo'shilgan qiymat nazariyasi, tadbirkorlik ko'rinishlari, iqtisodiy kategoriya, muntazamlik belgisi.

## НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ГРЕЦКОГО ОРЕХА В ГОРНЫХ МЕСТНОСТЯХ

К.э.н., доц. **Инобатов Аброр Бошларович**  
Образовательной университетом "Ренессанс"

**Аннотация.** В данной статье освещены возможности расширения юридического консультирования данного процесса для развития орехового бизнеса в республике. Узбекистан является одной из ведущих стран по экономическому потенциалу и возможностям среди стран Азии. Особое внимание уделяется модернизации и диверсификации экономики страны, повышению экспортного потенциала агропромышленного комплекса, занятию достойного и прочного места на мировом рынке. Выращивание грецкого ореха, развитие отрасли на основе современных технологий, сортов грецкого ореха, способных производить продукцию, отвечающую требованиям мирового рынка, внедрение экономичных и цифровых агротехнологий обеспечат улучшение качества продукции и повышение производительности труда в отрасли. сеть.

**Ключевые слова:** грецкий орех, экспорт, бизнес, рацион, специализация, риск, интенсивные технологии, прививка, селекция, конкурентоспособные сорта, плантации, вегетативный, величина годовой эффективной температуры, горные и предгорные регионы.

## SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF EFFECTIVENESS OF WALNUT PRODUCTION IN MOUNTAIN AREAS

*PhD, assoc. prof. Inobatov Abror Boshlarovich*  
*Renaissance Educational University*

**Annotation.** This article highlights the possibilities of expanding the legal consultation of this process for the development of the walnut business in the Republic. Uzbekistan is one of the leading countries with economic potential and opportunities among Asian countries. Special attention is being paid to modernization and diversification of the country's economy, increasing the export potential of the agricultural sector, and taking a worthy and solid place in the world market. Walnut cultivation, development of the sector on the basis of modern technologies, walnut varieties capable of producing products that meet the requirements of the world market, introduction of economical and digital agro-technologies will ensure improvement of product quality and increase of labor productivity in the network.

**Key words:** walnut, export, business, ration, specialization, risk, intensive technologies, grafting, selection, competitive varieties, plantation, vegetative, amount of annual effective temperature, mountain and sub-mountain regions.

### **Kirish.**

Jahonda oziq-ovqat ta'minoti masalasi va grek yong'og'i yetishtirish sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlarda insoniyat uchun kundalik sog'lom oziqlanish masalasiga alohida urg'u qaratilmoqda. Bunday sharoitda to'yimli va inson organizmini muhim ozuqa elementlari bilan ta'minlaydigan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish ilm-fan va amaliyot uchun muhim vazifalar qatoriga kiradi. Bunda grek yong'og'i yetishtirish ko'lamenti oshirishni rag'batlantirishning ahamiyati muhim hisoblanadi.

Respublika qishloq xo'jaligida samarali yo'nalishlaridan biri bo'lgan grek yong'og'i yetishtirish tadbirkorga iqtisodiy jihatdan yaxshigina foyda keltirishini so'nggi yillarda yaqqol ko'rina boshladi. Biroq, bu sohada tadbirkor faoliyatini rag'batlantiradigan va to'siq bo'lувchi bir qator xususiyatlar mavjud bo'lib, ushbu xususiyatlarni yong'oq biznesini rejlashtirishda hisobga olish, yong'oq biznesini yo'lga qo'yish paytida bozorni atroficha o'ganish, keyingi bosqichlarda bozorda ishslash bilan bog'liq avvaldan bilish qiyin bo'lgan holatlarni iqtisodiy jihatdan asosli prognoz qilish lozim bo'ladi.

Birinchidan, mavjud yong'oq bozorlarida mahsulotlarga talab barqarorligi va o'sib borishi shuningdek, bozor talabining insonlarning sog'lom oziqlanishga intilishi va grek yong'og'ining foydali xususiyatlari borasida kengroq axborotga ega bo'lib borishiga mos ravishda ortib borishi, yong'oq mahsulotlariga bozor talabi barqaror bo'lishidan darak beradi. O'zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlarini kelgusida maqsadli moliyalashtirish, xususiy sektor va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, demografik rivojlanish bilan bog'liq milliy xususiyatlarni moslashtirish, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirish, gender tengligi bo'yicha ma'lum salohiyat va imkoniyatlarni ochib beradi. «2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»ning rivojlanish maqsad va vazifalari bilan mutanosibligi va o'zaro bog'liqligi muhim o'rinni kasb etadi (Farmon, 2022). Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlanish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish, qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamenti kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, shuningdek tuproq unumдорligini oshirish va muhofaza qilish masalalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqida ta'kidlanganidek, "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va

xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun barcha sharoitlarni yaratish – eng muhim vazifamizdir”<sup>25</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PQ-4575-son “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalgalash oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2019-yil 23-avgustdagi PQ-4424-son “Respublikada o'rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, 2017-yil 1-iyundagi PQ-3025-son “Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalgalash oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Grek yong'og'i ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish, mahsulotning bozorgirlilik xususiyatlarini yaxshilash, yong'oq ishlab chiqarish jarayoniga investitsiyalar jalgan etish, dunyoda grek yong'og'i yetishtirish xususiyatlari va ulardan foydalanish masalalari yuzasidan tegishli ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish xorijlik olimlar tomonidan nazariy jihatlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini yoritishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodchi olimlar:

Simonenko (1996) tadbirkorlik deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish va uning asosida daromad olish uchun o'zining yoki qarz mablag'lari evaziga firma tuzishni tushunadi.

Tixomirov (1996) esa bu foydani chiqarib olish xo'jalik faoliyatining maqsadi ekanligini ta'kidlaydi. Ba'zi mualliflar ushbu faoliyatni muntazamligidan qat'iy nazar foyda olish faoliyatni sifatida ko'radilar.

Braginskiy (1998) quydagini ta'kidlaydi: “Shu bilan birga tadbirkor shartnomada ishtiroy etadi, lekin bu ishtiroy uning tadbirkorlik faoliyatini bilan bog'liq emas, tadbirkorlik faoliyatining hech qanday xususiyatiga ega emas. Shunday qilib, ekspertlar orasida tadbirkorlik faoliyati deb, muntazam (shaxsni asosiy faoliyati sifatida) va malakali ravishda molmulkdan foydalanish, tovarlar sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan foyda olishga yo'naltirilgan faoliyatga aytildi.

Abduraxmonov (2018-2023) o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi sohalarining xavf-xatarlar bilan bog'liqligi va ularni iqtisodiy himoya qilishning zamonaviy usullaridan biri bo'lgan sug'urtaning imkoniyatlaridan keng foydalanish bo'yicha tavsiyalar berib o'tgan.

Inobatov (2018-2024) o'z tadqiqotlarida dehqon xo'jaliklarida grek yong'og'i yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotni amalgalash oshirishda ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, ilmiy va umumiylash, qiyoslash, o'zaro solishtirma tahlil usullaridan keng foydalanilgan.


### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ta'kidlanganidek, grek yong'og'i yetishtirishda dehqon xo'jaliklari murakkab agrotexnologiyadan foydalanimasligi birinchi navbatda grek yong'og'i asosan tog'li hududlarda, aholi tamorqalarida yetishtirilganligi bilan bog'liq. Shuningdek, grek yong'og'i vegetatsiya davrida boshqa mevali daraxtlarga nisbatan inson tomonidan doimiy ravishda kuzatib borish va parvarishlashga kamroq muhtoj bo'lsada, qo'shimcha oziqlantirish va kasallik hamda hasharotlarga qarshi kurash tadbirlariga o'ta sezuvchan, ya'ni mazkur yo'nalishlarda amalgalash oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

<sup>25</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

oshirilgan agrotexnik tadbirlar natijasida yong'oq hosildorligi hamda sifatining sezilarli o'zgarishi bilan farqlanadi.

Demak, o'simlikni himoyalash usullari va vositalari bilan ta'minlash yong'oq yetishtirishda, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ayni pytda hosilni himoyalash tadbirlari resurs tejamkor usullar, vositalar bilan amalga oshishi lozim. Qishloq xo'jaligi sohasida resurstejamkorlik bugungi kunda o'ta dolzarb bo'lib, uning ahamiyati tobora ortmoqda. Chunki agrar resurslar miqdori va sifati pasayib borishi bilan birga, sifatli resurslarga ega bo'lish tobora qimmatlashmoqda. Resurs tanqisligi ularni tejashta bo'lgan zarurat turli sohalarda biri-biridan farq qilsada, umuman olganda, umumiyo'xshashlik bu – ularning tanqisligi hisoblanadi. Bizningcha dehqon xo'jaliklarida yong'oq yetishtirishda tejamkorlik tadbirlari quyidagi resurslar doirasida amalga oshadi (1-rasm):



**1-rasm. Yong'oq yetishtiruvchi dehqon xo'jaliklari ixtiyoridagi tejamkorlik tizimida foydalaniladigan resurslar<sup>26</sup>**

Dehqon xo'jaliklari ixtiyoridagi moliyaviy resurslar. Ushbu resurslar asosan, yong'oq ishlab chiqarishni takror tashkil qilish (oddii takror ishlab chiqarish), ishlab chiqarishni rivojlantirish (kengaytirilgan takror ishlab chiqarish), yong'oq yetishtiruvchilarining turli xo'jalik yuritish subyektlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajarish, mehnatga haq to'lashga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar hisoblanadi. Moliyaviy resurslar dehqon xo'jaliklarining faoliyati natijalari bo'yicha foydasi va jalg qilingan moliyaviy resurslardan tashkil topadi.

Dehqon xo'jaliklariga tegishli ishlab chiqarish fondlari. Ishlab chiqarish jarayoniga jalg qilingan mehnat vositalari bo'lib (daraxtlar, qishloq xo'jaligi mashinalari, transport vositalari, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash bilan bog'liq texnologik uskunalar, daraxtlarga o'suv davrida ishlov berish uskunalar), o'z o'rniда mehnat vositalari mehnat predmetlari (yer va suv, ko'chatlar, o'g'itlar, kimyoviy preparatlar, neft mahsulotlari kabilar) bilan birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil qiladi. Bunda suv resurslari, kimyoviy preparatlar sarfini tejashta iqtisodiy va ekologik jihatdan ahamiyatlidir. Dehqon xo'jaliklari ixtiyoridagi nomoddiy resurslar. Xo'jaliklarda to'plangan tajriba, patentlangan ishlanmalar, daraxtlarga ishlov berish usullari, yangi bilim egallashga sarflangan mablag'lar, tovar belgilari, qishloq xo'jaligi uchastkasidan foydalanish

<sup>26</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

huquqi kabilar nomoddiy resurslar hisoblanadi. Ammo, ushbu resurslar sarfi mahsulot tannarxida sezilarli salmoqni tashkil qilmaydi.

Demak, yong'oq yetishtirishda resurslarni tejash masalasi 1-rasmida aks etgan birinchi, ikkinchi va uchinchi resurslar bo'yicha amalgga oshadi. Bunda tejamkorlik – resurslardan foydalanish jarayonida yong'oq yetishtirishning miqdor va sifati jihatidan ortib borishiga (yoki kamaymasligi) resurslar sarfi miqdorining nisbiy barqarorligi saqlanib qolishi tushuniladi. Tejamkorlikdan ko'zlangan maqsad – resurslar sarfini tejab qolish masalasi yotadi, ya'ni mahsulot yetishtirishda resurslarni kamroq sarf qilish yoki yangi texnologiyalarni qo'llash orqali tejash tushuniladi. Resurslarni mutlaq va nisbiy tejash masalasiga e'tibor berish lozim (2-rasm).

### Yong'oq yetishtirishda resurslarni tejashga yondashuvlar

#### *Yong'oq yetishtiruvchilar ixtiyoridagi resurslarni mutlaq tejash*

- yong'oqzorlar maydoni hisobiga moddiy;
- texnik resurlar sarfini tejash (kg/ga) yoki ( $\text{so'm/ga}$ );
- yong'oqzorlar maydoni hisobiga ish kuchi sarfini tejash (kishi-soat/ga).

#### *Yong'oq yetishtiruvchilar ixtiyoridagi resurslarni nisbiy tejash*

- olingan mahsulot birligi hisobiga moddiy-texnik resurslar sarfini tejash;
- olingan mahsulot birligi hisobiga ish kuchi sarfini tejash (kishi-soat/tonna);

### *Resurslardan foydalanishda tejamkorlikning namoyon bo'lish shakli*

Yong'oq yetishtiruvchi resurslar sarfini belgilangan me'yordarga yaqinlashtirish yo'nalishida tejashni (miqdor jihatidan mutlaq tejash) nazarda tutadi.

Yong'oq yetishtiruvchi resurslar sarfini tejashni emas, balki ko'proq resurs sarfi hisobiga hosildorlikni oshirishni nazarda tutadi (yangi texnologiyalar hisobiga).

Yong'oq yetishtirish ishlab chiqaruvchilar va shuningdek, jamiyat uchun ham iqtisodiy-ijtimoiy samarali hisoblanishi boisdan, ushbu yo'nalishdagi tadbirlarni amalga oshirish qo'llab-quvvatlanadi.

Hosildorlik ortishi yong'oq yetishtiruvchilar uchun iqtisodiy samarali hisoblanadi. Ammo, jamiyat uchun yalpi xarajat ortishi boisdan ushbu yo'nalishga ustuvorlik berish tavsiya qilinmaydi.

### *Tavsiya qilinmaydi:*

- yong'oqzorlarda zararli hasharotlar va kasalliklarga qarshi ishlov berishda ustuvor ravishda resurslarni mutlaq tejash yo'nalishidan foydalanish;
- yong'oqzorlarda suvdan va mineral o'g'itlardan foydalanishda resurslarni tejashning uyg'unlashgan usullaridan foydalanish.

### **2-rasm. Dehqon xo'jaliklarida grek yong'og'i yetishtirishda resurs tejamkorlikka yondashuvlar<sup>27</sup>**

Tejamkorlik asosini yong'oqzorlar maydoni yoki bitta yong'oq daraxti hisobiga eng kam resurs sarfi orqali agrotexnik tadbirlarni sifatli va muddatida bajarish tashkil qiladi. Bunda dehqon xo'jaliklari tajribalari asosida shakllangan sug'orish, oziqlantirish tizimi yoki hasharot va kasalliklarga qarshi kurash usullarini joriy qilish, xarajatlarni mutlaq va nisbiy kamaytirish imkonini berishi mumkin.

<sup>27</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

**GREK YONG'OG'I YETISHTIRISHDA RESURSTEJAMKOR  
TADBIRLAR SAMARADORLIGINI  
BAHOLASH**

***Yong'oqzorлага mineral va maxalliy o'g'it berish.***

***Tejamkorlik xususiyati:***

Grek yong'og'i daraxtlarini oziqlantirishda qimmat mineral o'g'itlar o'rniغا muqobil sifatida arzon mahalliy o'g'itlardan foydalanish hisobiga resurs (mineral o'g'it) sarfi miqdori tejaladi.

***Samaradorligi:***

Grek yong'og'i daraxtlarini oziqlantirishda talab etiladigan mineral o'g'itlar sarfiga nisbatan mahalliy o'g'itlar sarfi qiyamatini taqqoslangan holda.

***Yong'oqzorlarni (yakka ekilgan yong'oq daraxtlarini) sug'orish.***

***Tejamkorlik xususiyati:***

Dehqon xo'jaligiklarida grek yong'og'i daraxtlarini sug'orishda an'anaviy egatlab sug'orishda suv sarfiga nisbatan, yong'oq daraxtlariga individual suv berish yoki tomchilatib sug'orish texnologiyasi hisobiga suv sarfi tejaladi.

***Samaradorligi:***

Grek yong'og'i yetishtirishda an'anaviy va svutjejamkor texnologiyadan foydalanish hisobiga tejab qolingga suv miqdorini taqqoslash asosida.

**Hisoblash usuli:**

- agrotexnik tadbirlarni bajarishda sarflanadigan resurslar bilan birga ularidan foydalanish bilan bog'liq (mehnat va moddiy) sarflar e'tiborga olinadi;
- grek yong'og'ini sug'orishda sarflanadigan suv miqdorini ham qiyamat ko'rsatkichiga aylantirib olish orqali umumlashgan resurs sarfi miqdori aniqlanadi. Bunda bir litr suv hisobiga ishlab chiqrishishi mumkin bo'lган yong'oq miqdori (me'yор asosida) va uning о'rtacha sotish bahosi asos sifatida qabul qilinishi tavsiya etiladi.

**3-rasm. Grek yong'og'i etishtirishda tejamkor texnologiyalarni iqtisodiy samaradorlik jihatidan baholashga uslubiy yondashuv<sup>28</sup>**

Masalan, zararkunanda va kasalliklarga qarshi foydalanilgan kimyoviy preparatlar yoki suv ortiqcha ishlatilib, hosilni yo'qotishning oldi olinishi, samarali hisoblansada, ammo bunda ekologik muammolar paydo bo'lishi jamiyatga zarar keltiradi. Shu bois, ustuvor ravishda resurslarni mutlaq tejash yo'nalishidan foydalanish tavsiya qilinadi. Shuningdek, tejamkorlikni baholashda ikkala yo'nalishdan integrallashgan holda foydalanish imkoniyatini ham qidirish maqsadga muvofiq.

Yuqorida tavsiya qilinayotgan shart-sharoitlar yong'oq etishtiruvchi dehqon xo'jaliklarida ish kuchidan samarali foydalanish orqali mehnat unumdorligini oshirishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilashga iqtisodiy rag'bat uyg'otuvchi muhit shakllanishiga zamin yaratadi.

"Yong'oqzorlarni mineral hamda organik o'g'it bilan oziqlantirish" texnologiyasi doirasidagi tejamkorlik – grek yong'og'i daraxtlarini oziqlantirishda nisbatan qimmat baholi mineral o'g'itlar o'rniغا muqobil sifatida arzon va ekologik samarali mahalliy o'g'itlardan foydalanish hisobiga sarf-xarajatlar miqdori tejalishi ko'zda tutiladi.

<sup>28</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Mazkur holatda mahsulot etishtirishda foydalanilgan texnologiyaning iqtisodiy samaradorligini baholash yong'oqzorlarni oziqlantirishda talab etiladigan mineral o'g'itlar sarfiga nisbatan mahalliy o'g'itlar sarfi qiymatlari taqqoslangan holda aniqlanadi.

Dehqon xo'jaliklarida grek yong'og'i etishtirishda foydalaniladigan tejamkor agrotexnik tadbirlar doirasida turli miqdordagi ish kuchi sarfi, moliyaviy resurslar sarfi, moddiy-texnik resurslar sarfi kuzatiladi. Ayni paytda turli usullarning iqtisodiy samaradorligi turli ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Masalan, mineral o'g'itlar sarfi va uni tejash kilogrammlarda o'lchanib, resurs sarfini qiymat ko'rsatkichiga aylantirish oson va u boshqa muqobil variantlarga ega emas. Suv sarfini tejash litrlarda o'lchanib, uni qiymat ko'rsatkichiga aylantirish ancha murakkab va turli muqobil variantlarda (bir litr suv sarfi uchun svuni etkazib berish xarajatlari tejalishi, bir litr tejab qolning suv hisobiga yong'oq etishtiruvchi sub'ekt tomonidan o'z ixtiyoridagi mavjud agroresurslar, ya'ni er maydoni, suv, malakali ish kuchi, mahsulot etishtirish tajribasi doirasida etishtirilishi mumkin bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymati kabilar) hisoblanishi mumkin.

Yuqorida tanlangan resurslarga nisbatan tejamkorlik doirasida baholanishi talab etiladigan grek yong'og'i etishtirish bo'yicha agrotexnologiyalar ("Yong'oqzorlarni mineral hamda organik o'g'it bilan oziqlantirish" hamda "Yong'oqzorlarni (yakka ekilgan yong'oq daraxtini) sug'orish") alohida ko'rsatkichlar bo'yicha iqtisodiy baholanishi hamda qiymat ko'rsatkichiga aylantirilgan holda baholanishini ko'rib chiqdik.

Mazkur texnologiyalarning tejamkor variantidan foydalanish natijasida yakuniy moliyaviy natijaga ta'siri darajasiga ham baho berish jumladan, grek yong'og'i etishtiruvchi dehqon xo'jaliklarining mahsulot etishtirishdagi xarajatlар rentabelligi ko'rsatkichi bilan baholash lozim.

Tilga olingen ikkita agrotexnologiyaning tejamkor variantlaridan foydalanish hisobiga shakllangan jami ishlab chiqarish xarajatlari va ushbu texnologiyalarning an'anaviy shaklidan foydalanish hisobiga yuzaga kelgan ishlab chiqarish xarajatlari doirasidagi rentabellik darajalari o'rtasidagi farq asosida iqtisodiy baholash mumkin. Bunda qo'shimcha rentabellik miqdorini quyidagicha aniqlash tavsiya qilinadi (Rk):

$$Pk = \left( \frac{ATF}{ATICHX} \times 100 \right) - \left( \frac{TTF}{TTICHX} \times 100 \right)$$

Bu yerda, ATF – mos ravishda an'anaviy texnologiya asosida va tejamkor texnologiyadan foydalanish hisobiga yong'oq etishtiruvchi sub'ekt tomonidan olinishi mumkin bo'lgan sof foyda miqdori, (so'm);

ATICHX va TTICHX – mos ravishda an'anaviy texnologiyadan foydalanish hisobiga yuzaga kelgan ishlab chiqarish xarajatlari va tejamkor texnologiyadan foydalanish hisobiga yuzaga kelgan ishlab chiqarish xarajatlari, (so'm).

Ushbu yo'l bilan aniqlangan rentabellik darajasi asosida grek yong'og'i etishtiruvchi sub'ektlarda tejamkor texnologiyalardan foydalanish hisobiga rentabellik darajasi qancha foizga oshganligini ko'rish mumkin. Bu umumlashtiruvchi sintetik ko'rsatkich hisoblnadi. Chunki tejamkor texnologiyalardan foydalanish hisobiga dehqon xo'jaliklari foydasi va shuningdek, xarajatlari miqdorida ham o'zgarishlar yuzaga keladi va u rentabellik darajasi o'zgarishida umumlashgan holda namayon bo'ladi.

Grek yong'og'i ko'p xarajat talab qilmagan holda uzoq muddat saqlash uchun qulayligi dehqon xo'jaliklari uchun bozor bahosi o'zgarishini kutgan holda sotish yoki eksportga jo'natish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratib beradi. Dehqon xo'jaliklarida moddiy manfaatdorlik yuqoriligi bois band bo'lgan bir kishi hisobiga mahsulot ishlab chiqarish fermer xo'jaliklariga nisbatan 1,4 marta, bir hektar ekin maydonidan olinayotgan mahsulot qiymati esa 10 barobarga yuqoriroq bo'lmoqda.

Toshkent viloyati Parkent tumanida faoliyat yurituvchi grek yong'og'i etishtiradigan ilg'or dehqon xo'jaliklari misolida yong'oq etishtirish iqtisodiy ko'rsatkichlari monogorafik o'rganilganda, o'rtcha bir tup yong'oq daraxtidan oliga hosil miqdori 50–65 kilogrammni tashkil

qilgan. Yong'oq daraxtlari naysiz mahalliy yong'oq bo'lganligi boisdan bir kilogramm sifatli mahsulotning o'rtacha sotish bahosi 22 ming so'mni, maydaroq yong'oqlar bahosi esa 16–17 ming so'mni tashkil etgan (1-jadval).

## 2-jadval

### Toshkent viloyati Parkent tumanida faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklarida yong'oq etishtirish iqtisodiy ko'rsatkichlari

| Ko'rsatkichlar  | "Nur" MFY dagi "Azimova Muxayyo Ereshbaevna" dehqon xo'jaligi | "Bog'bon" MFY dagi "G'ulomov Mirsidiq Olimovich" dehqon xo'jaligi | "Iqbol" MFY dagi "Jo'raev Erkin Agabekovich" dehqon xo'jaligi |
|---|---|---|---|
| Xo'jalik er maydoni, hektar   | 0,3   | 0,25  | 0,24  |
| Yong'oq tuplari soni  | 8   | 10  | 6   |
| O'rtacha bir yong'oqdan olinadigan hosil, kg                                | 50  | 65  | 55  |
| Jami olingan hosil, kg  | 400   | 650   | 330   |
| Shundan, yuqori sifatli   | 320   | 515   | 270   |
| O'rta sifatli   | 80  | 135   | 50  |
| Bir kg yong'oq bozor bahosi, kg/so'm  | Yuqori sifatli<br>O'rta sifatli                               | 22000<br>16000  | 21000<br>17000  |
| Jami olingan mahsulot qiymati, ming so'm                                    | 8320  | 13110   | 6520  |
| O'rtacha bir tup yong'oq daraxtidan olingan mahsulot qiymati, ming so'm/tup | <b>1040</b>   | <b>1311</b>   | <b>1086</b>   |

Grek yong'og'ining bir kilosi bahosi 2024 yilda respublikada 16–17 ming so'm (ulgurji savdo) ekanligini e'tiborga olsak, bu yong'oq etishtiruvchilarga yong'oqzor maydonlarining har bir gektaridan 24 600 Evro miqdoridagi mahsulot olish imkonini beradi. Monografik tadqiqotlar ko'rsatishicha, dehqon xo'jaliklarida grek yong'og'i o'rtacha 120 kg hosil berishi (20 yillik daraxt), hamda 1 tup grek yong'og'ini parvarishlash uchun xarajatlari o'rtacha 350 ming so'mni tashkil qilmoqda. Shunda 1 kg yong'og' etishtirish xarajatlari 2916 so'm bo'lib, 1 tup yong'og'dan olingan mahsulot qiymati 2460 ming so'mni, sof foyda esa 2110 ming so'mni tashkil qilib, tadbirkor uchun yong'oq biznesi yuqori foydalilik darajasiga egaligini ko'rish mumkin.

### Xulosa va takliflar.

1. Grek yong'og'i etishtirish iqtisodiy jihatdan yuqori foyda keltiruvchi biznes bo'lib, quyidagi muhim iqtisodiy hususiyatlarga ega:
  - birinchidan, grek yong'og'i ishlab chiqarish dehqon xo'jaliklaridan katta miqdordagi dastlabki investisiya mablag'larini talab qilmaydi;
  - ikkinchidan, grek yong'og'i niholi ob-havoning stress holatlariga bardoshli bo'lib, nihollarni parvarishlash, hasharotlardan himoyalash bilan bog'liq katta miqdordagi sarf-xarajatlarni talab etmaydi;
  - uchinchidan, dehqon xo'jaliklari yuqori daromadli biznesga ega bo'lishi bilan birga, kelajakda bir necha avlodlar uchun, kafolatli qaytim beruvchi daromadli iqtisodiy faoliyat poydevori yaratgan hisoblanadi;

- to'rtinchidan, grek yong'og'i daraxtlari orasiga ishlov berish, parvarishlashning soddaligi, murakkab mehnatni talab qilmasligi, uzoq umr ko'rishi (250-350 yil) sarf qilingan investisiyalarning uzoq yillar davomida qaytim berishini ta'minlaydi;

- beshinchidan, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari kabi yig'ib olingandan keyin sifati buzilishi, tovarlilik xususiyatlarini yo'qotishi, hosilni transportda tashishdagi nobdugarchiliklar deyarli sezilmaydi.

2. Grek yong'og'iga ichki va tashqi bozorda talab doimiyligi, talabning miqdori muttasil ortib borishi quyidagi holatlar bilan bevosita bog'liq:

- oziq-ovqat sifatidagi ahamiyatini ilm-fan aniq ko'rsatkichlar bilan isbotladi hamda jamoatchilik ongiga tobora kengroq sindirib borilmoqda;

- jahon bozorida yong'oq etishtirish hajmining talabdan ancha kamligi, dunyo mamlakatlari o'rtasida sifatini buzmasdan tashishga qulayligi, savdo sohasi uchun yuqori darajadagi jozibadorlikni yuzaga keltiradi.

3. Resurslarni tejash – resurslardan foydalanish orqali olinadigan yong'oqning miqdor va sifati jihatidan ortishi (kamaymasligi) resurslar sarfi miqdorining nisbiy barqarorligi saqlanib qolishi holati tushuniladi. Tejamkorlik asosini yong'oqzorlar maydoni yoki bitta yong'oq daraxti hisobiga eng kam resurs sarfi orqali agrotexnik tadbirlarni sifatli va muddatida bajarish tashkil qiladi.

4. Yong'oqzorlarda agrotexnik tadbirlarni bajarishda resurslarni tejash tadbirlari doirasida – "resurslarni mutlaq tejash" va "resurslarni nisbiy tejash" yo'nalishlarini qabul qilish mumkin. Bunda birinchi yo'nalishda resurs tejashga mavjud resurslar sarfi me'yoriga yoki o'tgan yil ko'rsatkichlarga nisbatan tejamkorlik tadbirlari baholangani holda, ekin maydoni birligi hisobiga resurs sarfini tejash nazorat qilinadi.

Ikkinci vaziyatda – resurslar sarfi tahlili yong'oqzorlar maydoni hisobiga emas, etishtirilgan mahsulot birligi bo'yicha amalga oshiradi. Shu bilan birga, boshqa jihatlar ham e'tiborga olinishi mumkin.

5. Yong'oq etishtirishda foydalaniladigan agrotexnologiyalar doirasida resurstejamkorlik jihatidan baholash masalasiga uslubiy yondashishda quyidagi yondashuvlar tavsija qilinadi:

- tanlab olingen agrotexnologiya grek yong'og'ini parvarishlovchi aksariyat dehqon xo'jaliklarida va boshqa yong'oq etishtiruvchi sub'ektlarda mahsulot etishtirishda keng foydalanishi lozim;

- grek yong'og'i etishtirish bo'yicha foydalaniladigan tadbirlar orasidan tanlangan tadbirni bajarish bilan bog'liq xarajatlar mahsulot tannarxida sezilarli salmoqqa (eng katta) ega bo'lishi lozim;

- grek yong'og'i etishtirish bo'yicha foydalaniladigan tadbirlar orasidan tanlangan tadbirni bajarishda muqobil variantlar mavjud bo'lishi lozim.

### ***Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:***

Boshlarovich, A. I. (2021). Pricing formation and market variability characteristics in walnut cultivation and its delivery to consumers. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 12(7), 294-301.

Braginskiy M.I. (1998) Dogovori s predprinimateyami po grajdanskому kodeksu// Pravo i ekonomika.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-soni Farmoni. - <https://lex.uz/docs/5841063>.

Inobatov, A. (2021). O'zbekistonda yetishtirilayotgan grek yong 'og 'ini dunyo bozorlariga eksport qilishda raqobatbop navlardan foydalanish. science and innovative development, 4(3), 73-83.

Inobatov, A. (2022). Dehqon xo'jaliklarida grek yong 'og 'i yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi. science and innovative development, 5(3), 143-151.

- Inobatov, A. (2023). *Economic stimulation of walnut market development in dekhkan farms. Science and Education in Karakalpakstan* 149-155,6
- Inobatov, A. (2024). *Dehqon xo 'jaliklarida yetishtirilgan grek yong 'og 'ini iste'molchilarga yetkazib berish yo 'llari.*
- Inobatov, A. (2024). *Opportunities for the development of the walnut market within the framework of farm activities. "Science and innovation" international scientific journal*, 13, 2024
- Inobatov, A. (2024). *Xususiy sektordagi tadbirkorlik faoliyatiga berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(3), 24-30.
- Inobatov, A., & Ziyadullaev, I. (2023). *Improving the methodology for predicting the yield of walnuts in farms based on econometric models. In E3S Web of Conferences (Vol. 376, p. 02001). EDP Sciences.*
- O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. www.stat.uz.
- Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo'ljallagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4575-sonli qarori.
- Sadullaevich, K. N., & Boshlarovich, A. I. (2021). *Resource-saving technologies in the cultivation of walnuts in terms of economic evaluation methodological approaches. The journal of contemporary issues in business and government*, 27(1), 957-968.
- Simonenko V.K (1996) *The influence of Elymus sibiricus L. genome on the diploidization system of wheat.*
- Tixomirov Y. A (1996) *Согласованность и коллизии норм. Московский журнал международного права*
- Абдурахмонов И.Х. (2022) *Суғурта соҳасида рақамли технологияларни қўллаш истиқболари. "Moliya va bank ishi" илмий журнал. №1, 95-99 б.*
- Абдурахмонов И.Х. (2022) *Суғурта соҳасида янги рақобат қўринишлари: назарий асос ва иқтисодий таҳлил. "Moliya va bank ishi" илмий журнал. №2, 145-150 б.*
- Абдурахмонов, И. Х. (2023). *Ўзбекистон Республикасида суғурта тармоқларини ривожлантиришнинг концептуал асослари. Автореферат дисс... и. ф. д, 78.*
- Инобатов, А. Б. (2021). *Ўзбекистонда етиштирилаётган грек ёнғоғини дунё бозорларига экспорт қилишда рақобатбон навлардан фойдаланиш. Илм-фан ва инновацион ривожланиш/Наука и инновационное развитие, 4(3), 73-83.*
- Инобатов, А. Б. (2022). *Деҳқон хўжаликларида грек ёнғоғи етиштиришнинг иқтисодий самарадорлиги. Илм-фан ва инновацион ривожланиш/Наука и инновационное развитие, 5(3), 143-151.*